

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutining xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori, texika fanlari doktori professor Abdulhakim Salohiddinov ishtirokida, uning o'zi bitirgan Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi Abu-Rayxon Beruniy nomli 1-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari va o'qituvchilari bilan "Kitob - ishonchli do'st" mavzusida uchrashuv va maxsus tadbir o'tkazildi.

Uchrashuvda tuman xalq ta'limi bo'limi vakillari, Kosonsoy Transport va aloqa kasb-hunar kolleji direktori Islomjon Muminov, maktab o'qituvchilari hamda yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. Uchrashuvda so'zga chiqqanlar kitob va uning shaxs hamda jamiyat rivojidadagi o'rni haqida hayotiy misollar asosida qiziqarli fikrlar va maslahatlar berdilar.

O'quvchilar o'zlarining qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar. Uchrashuv so'ngda TIQXMII prorektori maktab kutubxonasiga va a'lochi hamda iqtidorli talabalarga aniq va tabiiy fanlarga oid, shuningdek, ma'naviy va ma'rifiy va badiiy yo'nalishlardagi qiziqarli kitoblarni topshirdi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov